“Vatan haqidagi ko‘p hayqiriqlar g‘ashni keltiradi, Vatan sha’niga yuqqan g‘ubordek noxush taassurot uyg‘otadi. “Aqlli”lik qilib bundan saqlanishga urinib, Vatanni yozishdan, kuylashdan, o‘ylashdan o‘zimizni chetga olamiz. Chunki kulguga qolish, qanchalik ojizligimiz oshkor bo‘lishi yaxshimas-da. Vatanni, vatan yaralarini anglab yozish, juda ham qiyin savdo. Bunaqa kuychilikni Xudo taqdir qilmagan bo‘lsa, u muqaddaslikdan lom-mim demagan tuzuk. Ne baxtki, Shavkat Rahmonda kam bo‘lsayam chin vatanni yonib o‘lan qilgan, yodlasak yordamga keladigan she’r-u satrlar bor” (6). Ha, shoirning Vatan haqidagi har bir she’ri chaqmoqday shuuringizni yoritadi, Vatanni anglab yetish mas’uliyatini juda jo‘n tushunganligingizdan hijolat tortasiz, uni Shavkat Rahmonday yuragingizda kashf etmoq istaysiz. Mana bu misralarda shunday qudrat bor:

...Sendan-da ulug‘roq narsa yo‘qligin
sochim oqarganda angladim, Vatan!

Yoki:

Naqadar kechikib angladim seni,
chaqinlar yo‘q qilsa meni daf’atan,
ayt, qanday chidayman bunday xo‘rlikka,
ayt, qandoq yotaman qa’ringda, Vatan!

XX asr so‘ngida favqulodda mo‘jizaviy iste’dod sifatida porlagan Shavkat Rahmon ijodi “keyingi asr so‘z san’ati uchun u o‘ziga xos ko‘prik” (Zuhriddin Isomiddinov) (7) ekanligi haqiqat. Bu haqiqatni anglashda shoir haqidagi xotiralar, yodnomalar, yirik adabiyotshunos olimlarning e’tirofi yordam beradi. Bunday shoirlar jisman yoq bo‘lsalar-da, ma’nan hamisha safimizda. Ularning ovozi, nigohi bizni hamisha halolikka chorlab,mard yashashga undab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Adashboyev T. Shavkat Rahmonni xotirlab. T., “Sharq”, 2012, 21–22-betlar.
(2). Yo‘ldoshev Q. Shavkat Rahmonni xotirlab. T., “Sharq”, 2012, 9-bet.
(3). Rahmon Sh. Saylanma. T., “Sharq”, 1997, 203-bet.
(4). G‘afurov A. Shavkat Rahmonni xotirlab. T., “Sharq”, 2012, 55-bet.
(5). Ulug‘bek Hamdam. Shoir–“tuzalmas” haqiqatparast, “Shavkat Rahmonni xotirlab” (E’tirofnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlar va bag‘ishlov she’rlari). T., “Sharq”, 2012, 119–120-betlar.
(6).Vafo Fayzulloh. “Sahar turdim, quyoshni kutdim”. “Shavkat Rahmonni xotirlab” (E’tirofnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlar va bag‘ishlov she’rlari). T., “Sharq”, 2012, 141-bet.
(7). Zuhriddin Isomiddinov. Uch uchrashuv. “Shavkat Rahmonni xotirlab” (E’tirofnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlar va bag‘ishlov she’rlari). T., “Sharq”, 2012, 63-bet.

Isakjanova Shahodat (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
shahodatmuhammedovna@gmail.com)

ABDULLA ORIPOVNING “HAJ DAFTARI – HIKMAT SADOLARI” TURKUMIDA AGIOGRAFIK OBRAZLARNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida agiografik obrazlarning badiiy talqini Abdulla Oripovning “Haj daftari – Hikmat sadolari” turkumi misolida tadqiq etiladi. Shoir ijodida payg‘ambarlar va sahobalar obrazlarining an’anaviy diniy-tarixiy manbalar bilan aloqadorligi, ularning zamonaviy poetik tafakkur doirasida qayta talqin qilinishi tahlil qilinadi. “Hazrati Odam”, “Payg‘ambar”, “Jabroil”, “Jon achchig‘i” va “Bilol Habash” she’rlari misolida agiografik obrazlarning badiiy-falsafiy funksiyalari ochib beriladi. Shuningdek, an’anaviy rivoyatlarning lirik-poetik shaklga ko‘chirilishi, diniy mazmunning zamonaviy insoniy-falsafiy mushohadalar bilan uyg‘unlashuvi hamda agiografik obrazlarning yangi poetik funksional imkoniyatlari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik davri she’riyati, agiografik obraz, Abdulla Oripov, “Haj daftari”, payg‘ambar obrazi, Muhammad alayhissalom, Iso alayhissalom, Bilol Habash, diniy-tarixiy an’ana, poetik talqin, badiiy-falsafiy tafakkur, agiografik sujet.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АГИОГРАФИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ НА МАТЕРИАЛЕ ЦИКЛА АБДУЛЛЫ АРИПОВА “HAJ DAFTARI – HIKMAT SADOLARI”

Аннотация. *В статье исследуется художественная интерпретация агиографических образов в узбекской поэзии периода независимости на материале цикла Абдуллы Арипова “Haj daftari – Hikmat sadolari”. Анализируется связь образов пророков и сподвижников в творчестве поэта с*

традиционными религиозно-историческими источниками, а также особенности их переосмысления в контексте современной поэтики. На материале стихотворений "Hazrati Odam", "Payg'ambar", "Jabroil", "Jon achchig'i" и "Bilol Habash" раскрываются художественно-философские функции агиографических образов. Особое внимание уделяется поэтической трансформации традиционных преданий и их синтезу с современным гуманистическим и философским осмыслением.

Ключевые слова: *поэзия периода независимости, агиографический образ, Абдулла Арипов, "Haj daftari", образ пророка, Мухаммад, Иса, Билал Хабаш, религиозно-историческая традиция, поэтическая интерпретация, художественно-философское мышление, агиографический сюжет.*

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF HAGIOGRAPHIC FIGURES IN ABDULLA ORIPOV'S CYCLE "HAJ DAFTARI – HIKMAT SADOLARI"

Annotation*. This article examines the artistic interpretation of hagiographic images in Uzbek poetry of the independence period, focusing on Abdulla Oripov's poetic cycle "Haj daftari – Hikmat sadolari". The study analyzes the connection between the images of prophets and companions in the poet's works and traditional religious-historical sources, as well as the ways in which these images are reinterpreted within the framework of modern poetic thought. Based on the poems "Hazrati Odam", "Payg'ambar", "Jabroil", "Jon achchig'i" and "Bilol Habash" the article reveals the artistic and philosophical functions of hagiographic images. Particular attention is paid to the poetic transformation of traditional narratives and their synthesis with contemporary humanistic and philosophical perspectives.*

Keywords: *Uzbek poetry of the independence period, hagiographic image, Abdulla Oripov, "Haj daftari", image of the Prophet, Prophet Muhammad, Prophet Jesus, Bilal the Abyssinian, religious-historical tradition, poetic interpretation, artistic-philosophical thought, hagiographic narrative.*

Kirish. O'zbek adabiyoti bir necha asrlar mobaynida ilohiy va bashariy tushunchalar bilan uzviy aloqada shakllanib, tarixiylik va an'anaviylikni o'zida mujassamlashtirgan holda taraqqiy etib kelmoqda. Mazkur an'analar bugungi o'zbek adabiyotida ham o'zining badiiy-estetik va falsafiy talqinlarini namoyon qilib, novatorona konsepsiyalarning yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

Umuman olganda, o'zbek mumtoz adabiyotini islomiy ma'rifatdan ayri holatda tasavvur qilish imkonsiz. Yanada to'g'risi, mumtoz adabiyotga diniy-tasavvufiy mazmundagi ohanglar kirib kelishi asnosida, keyinchalik, adabiyotning, aniqrog'i, mumtoz she'riyatning o'zi islomiy ma'rifatning asosiy ifodachisi sifatida bo'y ko'rsata boshladi. Shu sababdan mumtoz adabiyot deganimizda, eng avvalo, islom dini bilan chambarchas bog'langan, tasavvufiy ruh bilan oziqlangan uzoq asrlik merosni tushunamiz. Professor I. Haqqulov ham: "...ularning (mumtoz adabiyot namoyandalari ko'zda tutilgan – I.Sh.) aksariyati Qur'oniy haqiqatlar bilan yashab, muqaddas kalom ilhomida ijod qilganlar. Payg'ambar hadislarini ijod ahli izchil bir tarzda o'qib-o'rganishdan tashqari, xilma-xil shakllarda badiiy talqin etishgan"ligi [2:287-b.] haqida yozar ekan, o'z-o'zidan mumtoz adabiyotning islomiy ruh bilan sug'orilganligi haqida tasavvur hosil bo'ladi.

Islom dini yuzaga kelgan davrdan boshlab, ushbu ma'naviy sarchashmaga xilma-xil rakursdan turib munosabat bildirish, tarixiy, ilmiy, badiiy asarlarda islom mohiyati haqida talqinlarni ilgari surish muttasil davom etib kelgan. Birgina o'zbek adabiyotidagi agiografik obrazlar xususida so'z yuritsak ham, uning naqadar uzoq yillik tarixga ega ekanligini bilishimiz mumkin bo'ladi.

"Tadqiqotlarga ko'ra, Qur'oni karimning to'rtdan bir qismi payg'ambarlar qissalaridan iborat. Nubuvvat – payg'ambar kalimasi esa Qur'onda sakson yetti marta zikr etiladi" [6:21-b.]. O'zbek adabiyotida payg'ambarlar, sahobalar, avliyolar va diniy-tarixiy shaxslar bilan bog'liq agiografik obrazlar aks etgan she'rlar nafaqat mumtoz adabiyotning, balki istiqloldan keyingi she'riyat va nasrning ham asosiy tasvir obyektiga aylanayotganini ko'rish mumkin. Mustaqillikdan keyin uzoq yillardan beri ildiz otgan an'analarga qaytish adabiyotning diniy-tasavvufiy falsafadan oziqlanishiga keng imkoniyat yaratib berdi.

Jumladan, Abdulla Oripovning "Haj daftari – hikmat sadolari" asari nafaqat Haq yo'liga, visoliga sayohat jihatidan, balki unda bir qancha agiografik obrazlarga murojaat nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli. Shu jihatdan, ushbu maqolada Abdulla Oripovning "Haj daftari – Hikmat sadolari" turkumidagi agiografik obrazlarning an'anaviy diniy-tarixiy manbalar bilan aloqasi, ularning poetik talqini va badiiy-falsafiy funksiyalarini aniqlashga harakat qildik.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek adabiyotida diniy-ma'rifiy mazmun, payg'ambarlar obrazi va nubuvvat motivining badiiy talqinlari juda qadimiy ildizlarga ega, aytish mumkinki, mazkur masalalar mumtoz adabiyotshunoslikdan tortib, zamonaviy adabiy jarayongacha bo'lgan davrda, turli aspektlarda o'rganilgan. Jumladan, I.Haqqulovning tadqiqotlarida mumtoz adabiyot namoyandalarining Qur'oniy haqiqatlar va hadislar bilan munosabati, diniy-ma'rifiy manbalarning badiiy tafakkurga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. U.Qobilovning "O'zbek adabiyotida nubuvvat motivi va obrazlari talqini (XIV–XV asrlar)"

mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek adabiyotida payg‘ambarlar obrazining shakllanishi, nubuvvat motivining badiiy tabiati va uning mumtoz adabiyotdagi o‘rni tadqiq etilgan. Agiografik syujet va obrazlarning tarixiy-diniy manbalar bilan aloqasini aniqlashda Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari ham muhim manbalardan biridir. Xususan, Iso alayhissalom bilan bog‘liq ko‘za va suv motivining manbaviy asoslarini aniqlashda mazkur asardagi hikoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Odam alayhissalomning yaratilishi, uning gunoh va tavba bilan bog‘liq qismati haqidagi diniy manbalar ham Abdulla Oripov she’rlaridagi agiografik obrazlarning semantik qatlamlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda agiografik obrazlarning mustaqillik davri o‘zbek she’riyatidagi poetik funksiyasi, xususan, Abdulla Oripovning “Haj daftari – Hikmat sadolari” turkumida an’anaviy diniy-tarixiy obrazlarning zamonaviy badiiy-falsafiy tafakkur bilan sintezi masalasi alohida tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqolada aynan shu ilmiy muammoni yoritishga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, poetik tahlil, germenevtik va intertekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Agiografik obrazlarning badiiy talqinini aniqlashda, avvalo, ularning diniy-tarixiy manbalardagi an’anaviy mazmuni bilan Abdulla Oripov she’riyatidagi poetik talqini qiyoslandi. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Oripovning “Haj daftari – Hikmat sadolari” turkumidagi “Hazrati Odam”, “Payg‘ambar”, “Jabroil”, “Jon achchig‘i” va “Bilol Habash” she’rlari tanlandi. Tahlil jarayonida agiografik obrazlarning faqat tarixiy-diniy prototipi emas, balki she’riy matn doirasida hosil qilayotgan semantik va estetik funksiyalariga e’tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Umuman, Abdulla Oripov ijodining ilk pallalaridanoq olam va davr, dunyo va zamon haqidagi o‘ylar umummezoniy mushohadalar asosida tavsiflanadi. “Haj daftari” turkumining “Hazrati Odam” she’rida o‘qiymiz:

Joylari osmonda bo‘lsa ham magar
Hazrati Odamga qiyindir g‘oyat.
O‘ng yoqqa boqqanda ruhlari yayrar,
Chap yonga boqqanda o‘rtanar faqat. [1;9-b.]

“Odamni va uning zurriyotlarini to qiyomatgacha ig‘voga solishni, to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishni va’da qilgan la’nati iblis Odam Ato va Momo Havvoni tinmay ig‘vo qilib, ularni man qilgan daraxt mevasidan yeyishga olib keldi. Ushbu hodisadan keyin Odam alayhissalom va Momo Havvo Allohga tavba qildilar. Alloh tavbalarini qabul qildi va ularni yer yuziga tushirdi” [4;21-b.]. Ana shundan so‘ng Odam farzandlariga tavba va iymon orqali jannat eshiklari, gunoh va xatolari uchun esa do‘zaxda yonish azobi meros bo‘lib qoldi. Abdulla Oripovning Odamning o‘ng va chapga boqishi tasvirida polifonik mazmun ifodalash mahorati bo‘y ko‘rsatgan: Odam alayhissalomning o‘ngi va so‘liga qarashi zurriyotlarining jannat va do‘zax atalmish azob va mukofotga noyil bo‘lishlarini, o‘ng va chap yelkadagi gunoh-u savoblarni sarhisob qiladigan farishtalarni, shuningdek, Havvoning aynan chap qovurg‘adan yaratilgani ham she’rda aks etganligi bilan bog‘liq talqinlarni ilgari surishimiz mumkin. Umuman olganda, shoir ushbu she’ri orqali birinchi nabiy – Odam alayhissalom orqali butun insoniyatga tegishli qismatni ifodalaydi.

“Haj daftari” turkumida eng ko‘p tilga olingan agiografik obraz Muhammad alayhissalomdir. Ijodkor “Payg‘ambar”, “Jabroil”, “Vahiy”, “Me’roj”, “Ona”, “Ota”, “Farzand”, “Shayton”, “Duo”, “Ibrat”, “Marhumlar sha’ni”, “Qiyomat”, “G‘iybat”, “Kamolot”, “Shafqat”, “Pahlavon”, “Hordiq”, “Ro‘za” va yana bir qancha she’rlarida Muhammad payg‘ambar nomini tilga olib, ushbu agiografik obraz vositasida ezgulik, shafqat, mehr-oqibat, insoniylik kabi tushunchalarning odamzod hayotida qanchalik ahamiyatli ekanini unutmaslikka chorlaydi. Xususan, Abdulla Oripovning yuqorida sanab o‘tilgan “Payg‘ambar” she’rida Muhammad alayhissalom obrazi tarixiy-diniy shaxsni eslatuvchi an’anaviy agiografik obraz doirasidagina rivojlantirilmay, lirik qahramonning ma’naviy izlanishlari, tavba va hidoyat istagi, ummatlik tuyg‘usi hamda insoniy komillik haqidagi qarashlarini birlashtiruvchi badiiy-falsafiy fenomen vazifasini ham bajaradi:

Hazrat, so‘rang bizning gunohimizni,
Boshlang to‘g‘ri yo‘lga gumrohimizni.
Egamga yetkazing oh-vohimizni... [1;3-b.]

“Jabroil” she’rida esa “Noqis aqllarni hikmatga qarat // Boshla osiylarni dinga, iymonga” satrlari orqali Muhammad payg‘ambar insonni jaholatdan hikmatga, gunohdan hidoyatga, iymonsizlikdan iymonga boshlovchi ma’naviy yo‘lboshchi sifatida talqin qilinadi.

Bundan tashqari, “Haj daftari” turkum she’rlarida nafaqat Muhammad alayhissalom, balki o‘rni-o‘rni bilan boshqa payg‘ambarlar va valiy zotlarga ham murojaatni ko‘rishimiz mumkin. Muallif ba’zan agiografik obrazlar haqidagi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan tasavvurlar, afsona va rivoyatlarni badiiy talqin

etar ekan, ularning an'anaviy mazmunini saqlagan holda, o'ziga xos poetik shakl va ifoda uslubi bilan boyitadi. Masalan, shoirning "Jon achchig'i" she'rida Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" va boshqa payg'ambarlar tarixi haqidagi asarlarda bayon etilgan ko'za va suv motividan foydalaniladi. Biroq mazkur rivoyatning an'anaviy mazmuni she'rda deyarli saqlangan holda, nasriy hikoyatning lirik-poetik shaklga ko'chirilishi kuzatiladi [3;164-b.]. Abdulla Oripov Iso haqidagi hikoyatning xulosasini an'anaviy talqinlardan oziqlangan holda badiiy-falsafik uslubda yakunlaydi:

Masiho nafasi yetishgani dam
Ko'zadan bir ovoz chiqdi-ku titrab:
– Ayo, shirin suving bo'ldimi taxir,
Dema, bu – tuz ta'mi qon achchig'idir.
Men ham Inson edim, Ko'zaman hozir,
Suvni achchiq qilgan jon achchig'idir! [1;2-b.]

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu parchada an'anaviy hikoyatning mazmuniy yadrosi saqlangan bo'lsa-da, uning she'riy ifodasida dialogik nutq, jonlantirish va tazod kabi poetik vositalar faol qo'llangan. Xususan, "shirin" va "taxir" tushunchalari o'rtasidagi tazod, suvning esa "jon achchig'i" bilan semantik-metaforik bog'lanishi orqali tashqi hodisa bilan insonning ichki kechinmasi o'rtasidagi aloqadorlik kuchaytiriladi. "Men ham Inson edim, Ko'zaman hozir" misrasida esa ko'za obrazi insonning foniyligi, hayot va o'limning muqarrarligi bilan bog'langan falsafiy ma'noni ifodalovchi poetik timsol darajasiga ko'tariladi. Bu poetik ma'no, albatta, Rabg'uziy hikoyatidagi an'anaviy mazmundan oziqlanadi: unda ham ko'zaning inson jasadidan yaratilgani va uning "jon achchig'i"ni o'zida saqlayotgani ta'kidlanadi. Abdulla Oripov esa ushbu mazmunni lirik nutqning ixchamligi va obrazlilik imkoniyatlari orqali qayta poetiklashtiradi. Qur'oni karimning "Baqara" surasi 156-oyatida ham "Ularga musibat yetganda: "Albatta, biz Ollohning ixtiyoridamiz, albatta, biz uning huzuriga qaytuvchilarmiz", – deydilar" [5;24-b.]. Mazkur oyatda ifodalangan insonning Allohga qaytishi haqidagi mazmun she'rda insonning foniyligi va qaytish muqarrarligini anglatuvchi ko'za obrazi bilan hamohanglashadi. Demak, insonning alaloqibat o'zi yaralgan tuproqqa qaytishi ko'za detali orqali in'ikos ettirilgan. Shu jihatdan, Iso alayhissalom obrazi she'rda an'anaviy agiografik sujetning tarkibiy unsuri sifatida namoyon bo'lish bilan birga, insonning foniyligi, umrning o'tkinchiligi va ruhiy iztirob haqidagi falsafiy mushohadalarni poetik jihatdan birlashtiruvchi obraz vazifasini ham bajaradi.

"Bilol habash" she'rida esa Abdulla Oripov islom tarixi va an'anaviy diniy manbalarda Rasulullohning sodiq sahobasi sifatida tasvirlangan Bilol obraziga murojaat qiladi. Shoir ushbu agiografik obrazning tarixiy-diniy mohiyatini saqlagan holda, uning badiiy talqinida insonning tashqi qiyofasi bilan ma'naviy-axloqiy mohiyati o'rtasidagi tafovut masalasini markazga chiqaradi. She'rning dastlabki bandlarida Bilolning Rasulullohga "kamarbastalik", "sidq" va "rost yo'l"ga sodiqligi ta'kidlanib, uning obraziga xos asosiy ma'naviy fazilatlar birin-ketin ochib beriladi. Bilolning "qora tan" ekanligiga alohida urg'u berilishi esa tasodifiy tavsif emas. Shoir tashqi jismoniy belgi bilan ichki ma'naviy kamolot o'rtasida poetik kontrast hosil qiladi. "Bu qora habash, /Jannat chehrasiga yarashgay qandoq?" tarzidagi savol orqali tashqi ko'rinishga asoslangan baholash mezoni ilgari suriladi, keyingi javobda esa ushbu mezon rad etilib, insonning haqiqiy qadr-qimmati uning "oq dili" va "iymon ohangi" bilan belgilanadi.

She'r yakunida esa, dastlab, salbiy ottenka sifatida namoyon bo'lgan "qora" rang poetik jihatdan qayta semantizatsiya qilinadi. "Jannat hurlariga qora xol" tarzidagi obrazli ifoda orqali Bilolning qora rangi nuqson emas, aksincha, jannat go'zalligini yanada bo'rttiruvchi estetik detal sifatida talqin etiladi. Shu tariqa, shoir rang kontrastidan foydalanib, tashqi va ichki go'zallik haqidagi an'anaviy tasavvurlarni qayta ko'rib chiqadi. Natijada Bilol Habash obrazi she'rda faqat tarixiy-diniy shaxsning poetik tasviri bo'lib qolmay, sidq, sadoqat, iymon va botiniy go'zallik kabi qadriyatlarni mujassamlashtirgan agiografik timsol darajasiga ko'tariladi. Uning "qora" qiyofasi va "oq dil"i o'rtasidagi poetik kontrast esa shoirning insonni tashqi belgilar emas, ma'naviy mohiyat asosida baholashga undovchi falsafiy-estetik qarashlarini ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning "Haj daftari – Hikmat sadolari" turkumida agiografik obrazlar an'anaviy diniy-tarixiy mazmunni saqlagan holda, zamonaviy badiiy-falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashadi. Shoir payg'ambarlar va sahobalar obrazlari orqali iymon, hidoyat, tavba, sadoqat, ma'naviy kamolot va insonning foniyligi kabi umuminsoniy qadriyatlarni poetik talqin etadi. "Jon achchig'i" va "Bilol Habash" she'rlari tahlili an'anaviy agiografik sujet va obrazlarning lirik-poetik shaklda qayta ishlanib, yangi semantik va estetik mazmun kasb etishini ko'rsatadi. Demak, agiografik obrazlar shoir poetikasida diniy-tarixiy xotiraning davomiyligini ta'minlash bilan birga, insonning ma'naviy-axloqiy mohiyatini anglashning muhim badiiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdulla Oripov. Haj daftari – Hikmat sadolari. library.ziyonet.uz/

(2). Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. Тошкент, “Шарқ”, 2007, 336-бет.

(3). Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. Тошкент, Тошкент Ислом университети, 2015, 164-бет.

(4). Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи. Биринчи китоб. Тошкент, “Ҳилол-нашр”, 2025, 512-бет.

(5). Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири/таржима ва тафсир муаллифи. Абдулазиз Мансур. Самарқанд, Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази нашриёти, 2021, 624-бет.

(6). Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV–XV асрлар). Филол. фан. д-ри (DsC)... дисс., Самарқанд, 2019, 284-бет.

Obidjonova Ma’suma (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent, O‘zbekiston; E-mail: obidjonovamasuma001@gmail.com; ORCID ID: 0009-0002-0280-8305)

ILMIY FANTASTIKADA ILMIY TAFAKKUR VA BADIIY TO‘QIMA MUNOSABATI

Annotatsiya. *Maqolada ilmiy fantastikada ilmiy tafakkur va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati tadqiq etiladi. Mavzuning dolzarbligi ilmiy fantastikaning badiiy tabiatini mazkur ikki omilning uyg‘unligi asosida aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural va janr-tahliliy metodlardan foydalanildi. Ilmiy g‘oyaning fantastik voqelikka aylanish jarayoni hamda ilmiy farazning badiiy to‘qima bilan munosabati tahlil qilindi. Natijada ilmiy tafakkur va badiiy to‘qimaning o‘zaro mutanosibligi ilmiy fantastika poetikasini shakllantiruvchi muhim omil ekani asoslandi. Shuningdek, fantastik voqelikning o‘quvchi tomonidan mantiqiy va tabiiy qabul qilinishini ta’minlovchi shuuriy ishonch tushunchasining ahamiyati ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy fantastika, ilmiy tafakkur, badiiy to‘qima, fantastik g‘oya, fantastik voqelik, ilmiy faraz, fantastik narrativ, shuuriy ishonch.*

ВЗАИМООТНОШЕНИЕ НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВЫМЫСЛА В НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКЕ

Аннотация. *В статье исследуется взаимосвязь научного мышления и художественного вымысла в научной фантастике. Актуальность темы обусловлена необходимостью определения художественной природы научной фантастики через взаимодействие данных компонентов. В исследовании применены сравнительно-типологический, структурный и жанрово-аналитический методы. Анализируется процесс художественного воплощения научной идеи и взаимосвязь научной гипотезы с художественным вымыслом. Обосновано, что их соотношение является важным фактором формирования поэтики научной фантастики. Раскрывается также значение понятия «сознательная убеждённость», обеспечивающего логичное и естественное восприятие фантастической реальности читателем.*

Ключевые слова: *научная фантастика, научное мышление, художественный вымысел, фантастическая идея, фантастическая реальность, научная гипотеза, фантастический нарратив, сознательная убеждённость.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN SCIENTIFIC THINKING AND ARTISTIC INVENTION IN SCIENCE FICTION

Annotation. *The article examines the relationship between scientific thinking and artistic invention in science fiction. The relevance of the study is determined by the need to define the artistic nature of science fiction through the interaction of these two components. The study employs comparative-typological, structural, and genre-analytical methods. It analyzes the transformation of scientific ideas into fantastic reality and the relationship between scientific hypotheses and artistic invention. The findings demonstrate that their correlation is an important factor in shaping the poetics of science fiction. The article also highlights the significance of “conscious conviction” in ensuring the reader’s logical and natural perception of fantastic reality.*

Keywords: *Science fiction, scientific thinking, artistic invention, science-fictional idea, fantastic reality, scientific hypothesis, science-fictional narrative, conscious conviction.*

Kirish. Adabiy janrlar taraqqiyotini kuzatganda, ayrim janrlarning o‘z chegaralarini nisbatan aniq belgilab olgani, ayrimlarining esa boshqa janrlar bilan tutashib, o‘ziga xos murakkab shakllarda namoyon bo‘layotganiga duch kelamiz. Ilmiy fantastika ana shunday murakkab janrlardan biridir. Uning tarkibida il-